

This is not registered version of TotalDocConverter!

Yo'qulobodning qadim tarixida boshi og'rigan odam shifo umidida tabibga borsa, tabibi bilan hisob-kitob qilganidan keyin yurak og'rig'ini ham orttirib chiqarkan. Bu bir mish-mish deysizmi? Unda yana bir mish-mishni eshitting. Yo'qulobodning shimoli-shraqida joylashgan Teskariobod tomonda Toshbaqaobod degan qishloq joylashgan. Ana o'sha yerda yashovchi Bevoshqul otaning kasalxonaga bosh vrachini tavbasiga tayantirganini birov eshitgan, boshqa birov esa bexabar. Aslida Bevoshqul ota soppasog' edi. Shu yoshga kirguniga qadar do'xtir deganiga ishi tushmagan. Shu qish ikkki marta aksirgan edi, katta o'g'li tushmagurning mehri jo'shib ketdimi, "ota, siz ham boshqalarga o'xshab yoti-ib bir davolaning", dedi. Bevoshqul ota: "Kasalxonaga yotmasam odam qatoridan chiqaman shekilli, bolalarim yana "otasini kasalxonaga yotqiza olmayapti ekan", degan malomatga qolishmasin", deb, ko'na qoldi. Ammo o'g'li tushmagur hadeganda yo'llanmani olavermadidi. Bevoshqul ota bu yo'ltagi sarsongarchilikni qaerdan bilsin? Sarsongarchilik nimaligini Yo'quloboddoda juda ko'pchilik bilmaydi. Sarsongarchilik yo'qulobodliklar tili bilan aytganda, bu yo'lda ozgina chiqim qilish. Chiqimsiz mushuk ham oftobga chiqmaydigan bo'lib qolganini bilmaydigan odam uyida turshak shimib, na'matakning qaynatmasini ichib o'tiravergani durust-da. Katta o'g'il ham uyatchan-da, "ota, uch oylik maoshimni olsam, kasalxonaga yo'llanma ham unib qolardi. Ungacha ko'rpacha qatiga yashirgan pensa pullaringizni chiqarib turing", demadi.

Bevoshqul ota tushunardi, asli mard emasmi, "sen uch oylik maoshingni kutayotgan bo'lsang, menam ikki oylik pensamdan hali umidimni uzganim yo'q", deb o'tirmasdan, nosdan orttirgan pullaridan shart chiqarib berardi. Oxiri shunday bo'ldi ham, katta o'g'il aytidi, ko'rpacha qatidagi pul chiqarildi Yo'llanma qo'lga tegdi. Bevoshqul ota ham odam qatoriga qo'shilib, kasalxonaga yotqizildi. Do'xturlar birin-sirin kirib, otaning hurmatini joyiga qo'yib: "Nima kasalingiz bor?"- deb so'rashdi. Bevoshqul ota "nima kasalim borligini o'zing topmaysanmi?"-deb o'tirmay, "To'rt yil oldin o'lib bergen kampirimni sog'inishdan boshqa kasalim yo'q",-deb qo'ya qoldi. Shu-shu do'xtirlar Bevoshqul otaga yo'lamay qo'yishdi. Ota "Bu do'xtirlarda kampirni sog'inish kasaliga dori yo'q ekan-da?"-deb yotaverdi. Keyin ziyraklik bilan kuzatib qarasa-ki, do'xtirlar kirib, quyuq salom berishganda, u quruq alik olgan ekan. Bilsa-ki, tuzalishni istagan kasal do'xtirning salomiga boshqacha alik olishi zarur ekan. Astoydil duo qilish, yurakdan chiqarib rahmat aytish hisobga o'tmas ekan. Rahmat deganlari cho'ntakdan chiqishi shart ekan. Do'xtirlarning bilgani bilgan. Agar ular bozorga borib: "Bevoshqul bobo menga bir tonna rahmat aytidilar, deyishsa, birov bir misql go'sht berarmidi?" Bevoshqul ota ziqna emas. Aqli kirgandan keyin u ham rahmatni cho'ntakdan chiqarib, aytib turdi. Dorining hilma-hilini yozib berishdi-yu "bunaqa dori kasalxonamizda yo'q, o'g'lingizga aytинг, topib kelsin", deyishdi. Baraka topgurlar, kasalxonaning shunday biqinida dorixona oolib qo'yishgan ekan, o'g'li qidirib, sarson bo'lmadi. Yana baraka topishsin, ilgarilar kasalxonaga yotgan odamni yigirma to'rt kun davolashardi. Hozir ikki haftada mixday qilib yuborishyapti. Shunisi ham durust. Yigirma to'rt kun yotgan odam rahmat aytaverib, oxiri o'limligiga asrab yurganini ham shu yerga tashlab ketarmidi... Ikki hafta deganda Bevoshqul ota ham uyiga ketadigan bo'ldi. Narsalarini tugib, o'g'liga "uydagи aravani olib kel", deb tayinladi. Keyin o'zi yotgan karavotini ko'tartirib, aravaga ortayotgan edi, bosh vrach hay-haylab kelib qoldi.

-Kasalxonanga yotg'izish uchun o'g'lim pul to'lagan ekan. "Bitta koyka falon so'm",- degan ekansanlar. O'sha pulni to'laganman. Endi shu koykang meniki bo'ladi,-dedi Bevoshqul ota o'jarlik bilan. Bosh vrach yalingan edi Bevoshqul ota: "Mening bu yerda yotishim ham, dori-darmon ham tekinligini bilasanmi?"- deb so'radi. So'ng hisob-kitobni boshladi: barmoqdan qon olishga hamshirangga shuncha rahmat puli, tomirdan qon olishga muncha, dumbaga igna sanchishiga yana buncha, klizma degan palakating bor ekan, unga ham shuncha, hojatxonangga ko'p to'lamay deb ikki kunda bir kiradigan bo'lib qoldim... yaxshiyam kasalxonangda o'lib bermadim, jag'imni bog'lashga pulim yetmasa, og'zimni lang oolib, chiqib ketaverardim. Yanayam baraka toplaring, kampirlarga bir qarab olish tekin ekan, ko'zlarim rosa mazza qildi.

Endi mish-mishning oxiri nima bilan tugashimi bilmochimisiz? Bosh vrach Bevoshqul otaning hamma chiqimlarini to'lab, karavotni olib qoldi. Bechoraga javr bo'libdi, deb achinyapsizmi? Achinmang. O'sha kuni Hapqul otaning katta o'g'li bu koyka uchun ozgina chiqim qildi, deb eshitdik. Yanayam Xudo bilguvchiroqdir. Balki bu ham bir mish-mishdir?